I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 15 631,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur‘ati 101,7 foizga teng bo‘ldi.

2023- yil yanvar- mart oylarida YAHM deflyator indeksi 105,0 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **14 774,3** ming so‘mni tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2022- yil	*2023- yil*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**14 632,6**	**15 631,3**	**101,7**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	14 309,5	15 362,4	101,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	323,1	268,9	101,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**14 309,5**	**15 362,4**	**101,8**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 070,3	1 187,2	103,0
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	11 317,0	11 938,1	101,4
sanoat	10 860,9	11 430,4	101,3
qurilish	456,1	507,7	104,5
Xizmatlar	1 922,2	2 237,1	103,2

	mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2022- yil	*2023- yil*	
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	443,3	511,2	100,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	244,9	289,1	106,1
boshqa xizmatlar	1 234,0	1 436,8	103,6

Yanvar- mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)

2023- yilning yanvar- mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur‘atiga ijobiy ta‘sir, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (106,1 foiz), boshqa xizmatlari (103,6 foiz), qurilish (104,5 foiz), sanoat (101,3 foiz) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (100,6 foiz), tarmoqlaridagi yalpi qo‘shilgan qiymat hissasiga to‘g‘ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 21,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi va bu ko‘rsatkich 2022-yilning yanvar-martiga nisbatan 1,7 foizga ko‘paydi.

2023- yil yanvar- mart oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o‘sish sur‘atlari